

**“O‘ZBEKISTONDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHDA
PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI VA NODAVLAT NOTIJORAT
TASHKILOTLARI HAMKORLIGI: HUQUQIY VA AMALIY JIHATLAR”**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o‘quv kursi 317-guruh kursanti

Majidov Shoxjaxon Komiljon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlarini

ta‘minlash kafedrası o‘qituvchisi, katta leytenant

Mamatov Shermuxammad Ilxom o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktika inspektorlari va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada davlat va jamiyat institutlari o‘rtasida hamkorlikning ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan. Shuningdek, huquqiy ong va madaniyatni oshirish, jinoyatchilikka moyil shaxslar bilan ishlash, ijtimoiy rehabilitatsiya va viktimologik profilaktika kabi sohalarda NNTlar bilan hamkorlikning samarali mexanizmlari tavsiflangan. Muallif tomonidan hamkorlikni huquqiy asoslar bilan mustahkamlash, axborot almashinuvini raqamlashtirish, o‘quv va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari joriy etish bo‘yicha aniq takliflar berilgan. Maqola huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirishda NNTlar bilan hamkorlikni samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Profilaktika inspektori, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, jamiyat xavfsizligi, huquqiy ong va madaniyat, viktimologik profilaktika, ijtimoiy rehabilitatsiya, davlat-jamiyat hamkorligi, axborot almashinuv, fuqarolik jamiyati.

O‘zbekistonda jamiyatda barqarorlik va terrorizm, ekstremizm, narkotrafik kabi tahdidlarga qarshi samarali kurash uchun davlat va jamiyat institutlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yili jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda shunday kirish chaqiriq qilgan edi: “Profilaktika inspektorlarining bilimi va kasb tayyorgarligini oshirish, ular uchun munosib ish sharoiti yaratish davlat tashkilotlari va keng jamiyat oldida turgan muhim vazifalar

aniq va ravshan belgilab olindi.¹ ” Shuningdek, Qarshi shahrida profilaktika inspektori uchun yaratilgan sharoit bilan tanishar ekan, Prezident shunday yodga olgan: “Mahalla jamiyatimizdagi adolat tamoyillarining ko‘zgusiga aylanishi kerak ... profilaktika inspektori xonasi mahalla hududidagi jamiyat ob'ektlariga o‘rnatilgan videokuzatuv uskunolari orqali hududni nazorat qilib turish imkoniyatini beruvchi monitor bilan jihozlangan.²” Ushbu nutqlardan kelib chiqib, ushbu maqola profilaktika inspektorlari faoliyatini nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) bilan mustahkam hamkorlikda tashkil etishning huquqiy va amaliy jihatlarini joriy vaziyat va strategik vazifalar nuqtai nazaridan tahlil qilib beradi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, NNTlar jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etishda, aholining huquqiy ongi va faolligini oshirishda, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat organlarining ishonchli hamkorlariga aylanishi zarur. Shuningdek, Prezidentning jamiyat havfsizligini ta’minlashga bag‘ishlangan yig‘ilishlardagi nutqlarida profilaktika ishlarini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish va bu jarayonga keng jamiyatni, ayniqsa NNTlarni jalb etish zarurligi bir necha bor alohida ta’kidlangan. O‘zbekistonda 2022 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, 9 mingga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari mavjud bo‘lib, ular turli yo‘nalishlarda faoliyat yuritmoqda: tadbirkorlik, ekologiya, sport, yoshlar, xotin-qizlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqalar³. Davlat tomonidan NNTlarga moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatilmoqda. Masalan, 2021 yilda 46 mln AQSh dollari, 2022 yilda esa 54 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘lar kelib tushgan⁴. NNTlar faoliyatining shaffofligini ta’minlash maqsadida jamiyat nazorati tizimi takomillashtirilmoqda. 2024 yilda Davlat byudjetidan 1.8 trillion so‘m mablag‘ ajratilishi belgilangan bo‘lib, bu mablag‘lar aholining ijtimoiy muammolarini hal qilishga va NNTlarning texnik bazasini mustahkamlashga yo‘naltirilmoqda⁵. O‘zbekiston Respublikasining 14.04.1999 yildagi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi 763-I-son qonuni⁶ Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)ning ta’sisi, huquqiy maqomi, faoliyat yo‘nalishlari, davriy hisobotlari, davlat bilan aloqalari va untima ravishda faoliyatini tugatish tartibini belgilaydi. Qonun NNT tushunchasi va maqsadi, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar, ustav, ta’sis hujjatlari, tuzilish tartibi, moliyalashtirish, aktivlar, daromadlar, soliq, hisob va hisobotchilik, xalqaro aloqalar, vakolatxonalar va filiallar,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent, 2017. – 104 b.

² O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-6445145>

³ O‘zbekiston Respublikasining “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 yil 2 aprel, O‘RQ-532-son. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-4494709>

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 yil 2 sentyabr, O‘RQ-561-son. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/4494709>

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida, 2017 yil 11 sentyabr, O‘RQ-445-son. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-3336169>

⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil 16 sentyabr, O‘RQ-407-son. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-3027843>

tugatish, faoliyatni to'xtatish va javobgarlik choralari kabi qator bo'lim va moddalarni qamrab oladi. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son 14.05.2014 yildagi qonunga asosan, profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning oldini olish, jamiyat havfsizligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi⁷. Profilaktika inspektorlari mahalliy davlat hokimiyati organlari, ichki ishlar organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Ular qonunchilikka muvofiq ravishda huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishga mas'uldurlar.

Profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari:

Huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; jamiyat havfsizligini ta'minlash va huquqiy tartibni saqlash; huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish; huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktik suhbatlar o'tkazish; profilaktik hisobga olish va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish hisoblanadi. Profilaktika inspektorlarining faoliyati mahalliy davlat hokimiyati organlari va ichki ishlar organlari tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ular profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Profilaktika inspektorlari quyidagi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik o'rnatadi:

Ichki ishlar organlari;

Prokuratura organlari;

Davlat havfsizlik xizmati organlari;

Davlat soliq xizmati organlari;

Mehnat organlari;

Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari;

Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari;

Hozirgi jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish va jamiyat havfsizligini ta'minlash davlat va jamiyat organlari uchun ustuvor vazifalardan biridir. Bu borada profilaktika inspektorlari muhim rol o'ynaydi, chunki ular jamiyat bilan yaqin aloqada bo'lib, huquqbuzarliklarni oldini olish uchun zarur chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Biroq, huquqiy muammolarni to'liq hal qilish va jamiyatda barqarorlikni ta'minlash uchun profilaktika inspektorlari faoliyatini Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) bilan hamkorlikda olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Huquqiy ong va

⁷ O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni, 2014 yil 14 may, O'RQ-371-son.
– Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-2387357>

madaniyatni oshirishda NNTlarning roli NNTlar jamiyatning turli qatlamlarida faoliyat yuritadi va aholi bilan yaqin aloqada bo'ladi. Ular orqali huquqiy targ'ibot ishlari olib borilishi, huquqiy madaniyatning oshishiga xizmat qiladi. Bu esa huquqbuzarliklarni oldini olishning samaradorligini oshiradi, chunki huquqiy ongi yuqori bo'lgan jamiyatda qonunbuzarliklar soni kamayadi. Jamiyat ishonchini mustahkamlash ichki ishlar organlari va profilaktika inspektorlarining faoliyatiga nisbatan jamiyat ishonchini oshirishda NNTlarning hissasi katta. NNTlar jamiyat bilan yaqin bog'liqligi tufayli ichki ishlar organlari faoliyatini ochiq va oshkora qilishga yordam beradi, bu esa jamiyat va davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Ijtimoiy reabilitatsiya va moslashtirishda hamkorlik jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirishda NNTlar profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda ijobiy natijalarga erishishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda NNTlar shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatadi, ularni ijtimoiy himoya qilish va huquqiy tarbiyalash bilan shug'ullanadi. Viktimologik profilaktika jabrlanuvchilarga yordam berish va ularning huquqlarini himoya qilishda NNTlar profilaktika inspektorlari bilan birgalikda ishlaydi. Bu hamkorlik qayta jabrlanish xavfini kamaytirishda muhimdir. Ma'lumot almashinuv va profilaktik tadbirlarni tashkil etish profilaktika inspektorlari va NNTlar o'rtasidagi ma'lumot almashinuv huquqbuzarliklar va ijtimoiy havf ostidagi shaxslar haqidagi ma'lumotlarni tez va aniq yetkazishga imkon beradi. Shuningdek, birgalikda huquqiy targ'ibot, ma'rifiy seminarlar va treninglar tashkil etiladi, bu esa profilaktika faoliyatini samaralashtiradi. Yoshlar va havf guruhidagi shaxslar bilan ishlashda hamkorlik yoshlar va huquqbuzarliklarga moyil shaxslar bilan ishlashda NNTlar profilaktika inspektorlariga qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Bu yoshlarning ijtimoiy va huquqiy ongi oshirishda muhim ahamiyatga ega.

“Ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilgan islohotlar” O'zbekistonda ichki ishlar organlari (IIV) tomonidan NNTlar, jamiyat institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy chora-tadbirlariga oid bir qancha manbalar mavjud. Islohotlar doirasida: mahallalarda profilaktika inspektorlari soni oshirildi (5 867 dan 9 784 nafargacha) profilaktika inspektorlarining xizmat zonasi, ba'zi hollarda “mahalla raisining huquq-tartibotni ta'minlash bo'yicha o'rinbosari” sifatida belgilanishi; moddiy-texnik baza va vositalarni yaxshilash uchun xizmat uylari, avtomashinalar va kreditlarga imtiyozlar berish kabi tashkiliy qadamlar qilinmoqda⁹. “Jamiyat havfsizligi kontseptsiyasi” va “Strategiya yo'l xaritasi” Jamiyat havfsizligini ta'minlashda jamiyat institutlari, mahalla, Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik, ularni jalb etilib, havf va tahdidlarga qarshi choralarini shakllantirish nazarda tutilgan¹⁰. Probatsiya inspektorlari va profilaktika inspektorlari hamkorligi Probatsiya nazoratidagi shaxslarga cheklov va nazoratni ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashtirishida profilaktika inspektorlari bilan kunlik hamkorlik qilish vazifasi yuklanmoqda¹¹. Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda memorandumlar va hamkorlik

Masalan, IIV va Ma'naviyat va ma'rifat markazi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda hamkorlik memorandumini imzolandi. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portalini; shuningdek oliy ta'lim muassasalarida profilaktik targ'ibot tadbirlari (universitetlarda, talabalar bilan suhbatlar) tashkil qilinmoqda. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) bilan hamkorligi huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida juda muhim ahamiyatga ega.

Profilaktika inspektorlari va NNTlar o'rtasidagi hamkorlik quyidagi jihatlar bilan muhimdir:

Huquqiy ong va madaniyatni oshirish NNTlar orqali aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlari olib boriladi, bu esa huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi. Jamiyat va fuqarolar ishonchini oshirish NNTlar jamiyat bilan yaqin aloqada bo'lgani sababli, ichki ishlar organlarining ishiga nisbatan jamiyat ishonchi ortib boradi. Ijtimoiy moslashish va rehabilitatsiya sudlangan yoki ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jamiyatga qaytarishda NNTlar faol ishtirok etishi mumkin. Viktimologik profilaktika jabrlanuvchilarga yordam berish, ularning huquqlarini himoya qilish va ularni qayta jabrlanishdan asrashda NNTlar muhim rol o'ynaydi. Profilaktika inspektorlari va NNTlar o'rtasidagi hamkorlik quyidagi asosiy turlarda amalga oshirilishi mumkin. **Ma'lumot almashinuv** Huquqbuzarliklar, jinoyatlar va ijtimoiy havf ostidagi shaxslar haqidagi ma'lumotlarni almashish. **Tadbirlarni tashkil qilish** huquqiy targ'ibot, ma'rifiy seminarlar, konferensiyalar, treninglar, profilaktik uchrashuvlar. **Ijtimoiy yordam ko'rsatish** muhtojlarga yordam berish, turli ijtimoiy loyihalar orqali profilaktik ta'sir o'tkazish. **Ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashtirish** ilgari jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish ishlarida ishtirok. **Yoshlar bilan ishlash** maktablar, oliy o'quv yurtlari, mahallalarda yoshlarni ma'naviy tarbiyalash va huquqiy bilimini oshirish. **Havf guruhidagi shaxslar bilan ishlash** jinoyatga moyil yoki huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni yakka tartibda kuzatish va nazorat qilishda yordam.

Profilaktika inspektorlari va NNTlar hamkorligining quyidagi ijobiy samaralari bor bular quyidagilar:

- Huquqbuzarliklar sonini kamaytirish;
- Jamiyat ishtirokini kuchaytirish;
- Huquqiy targ'ibotni kengaytirish;
- Jamiyatda adolat hisini kuchaytirish;

Bunday hamkorlik natijasida huquqbuzarliklarni oldini olishda profilaktika chora tadbirlari samarali bo'ladi, fuqarolar faol ishtirokchiga aylanadi, huquqiy ma'lumotlar aholiga keng tarqaladi, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Profilaktika inspektorlari va NNTlar hamkorligidagi faoliyat bo'yicha asosiy muammolar:

- Hamkorlikni tartibga soluvchi huquqiy asoslar yetarli darajada emas;

- NNTlar va profilaktika inspektorlari o'rtasidagi munosabatlarni aniq tartibga soluvchi maxsus qonuniy mexanizmlar mavjud emas yoki amaliyotda samarali qo'llanilmayapti;
- Idoraviy buyruqlar va yo'riqnomalar bilan cheklangan holdagi hamkorlik rasmiylashmagan shaklda amalga oshirilmoqda;
- O'zaro axborot almashinuvidagi cheklovlar;
- Qonuniy cheklovlar, maxfiylik siyosati va byurokratik to'siqlar sababli, NNTlarga foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar vaqtida yetkazilmaydi;
- Axborot almashinuvining raqamlashtirilmagani samaradorlikni pasaytiradi;
- Moliyaviy va moddiy resurslarning yetarli emasligi;
- Ko'plab NNTlar profilaktik tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur resurslarga (texnika, transport, mablag', mutaxassis) ega emas;
- mavjud davlat grantlari va mablag'lar hamma NNTlar uchun teng va shaffof taqsimlanmayapti;
- fuqarolik jamiyati institutlari bilan ishlash tajribasining kamligi.

Hamkorlik mexanizmlarini yaratish va amalga oshirish uchun maxsus o'quvlar tashkil qilinmayapti;

- NNTlar faoliyatining noto'g'ri qabul qilinishi;
- Ayrim ichki ishlar xodimlari NNTlarni norasmiy yoki ishonchsiz tashkilot sifatida qabul qilishi mumkin;
- NNTlarning maqsadi, faoliyati va vazifalari haqida yetarli bilim va tushuncha mavjud emas;
- Hamkorlikdagi tadbirlarni tizimli tashkil etilmasligi;
- Tadbirlarni bir martalik yoki formal tarzda o'tkaziladi, natijalar tahlil qilinmaydi, ish uslubi tizimli emas;

Profilaktika inspektorlari va NNTlar o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar

- Huquqiy asoslarni mustahkamlash;
- NNTlar va profilaktika inspektorlari o'rtasidagi hamkorlikni belgilab beruvchi maxsus nizomlar, qarorlar va yo'riqnomalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda NNTlar roli va ishtirokini mustahkamlovchi moddalar kiritish;
- Aniq va samarali axborot almashinuv tizimini yaratish;
- NNTlar va profilaktika inspektorlari o'rtasida axborot almashish uchun elektron platforma yoki maxsus baza yaratish. Bu platforma orqali havf guruhidagi shaxslar, profilaktik tadbirlar, viktimga ko'rsatiladigan yordam haqida ma'lumotlar almashilishi mumkin;
- Qo'shma tadbirlar va rejalar ishlab chiqish;

- Har bir mahallada NNTlar va profilaktika inspektorlari ishtirokida profilaktik tadbirlar bo'yicha yillik ish rejalarini tuzish. Ushbu rejalariga huquqiy targ'ibot, seminarlar, treninglar, ijtimoiy yordam aksiyalari kabi choralar kiritilishi lozim;
- O'quv kurslari va malaka oshirish dasturlari, profilaktika inspektorlari uchun NNTlar bilan ishlash bo'yicha maxsus malaka oshirish treninglarini tashkil etish;

-NNT xodimlari uchun esa huquqiy savodxonlik va ichki ishlar organlari bilan hamkorlik qoidalariga bag'ishlangan o'quv seminarlarini o'tkazish;

-Moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash, davlat grantlari va moliyaviy dasturlar orqali NNTlarning profilaktika sohasidagi faoliyatini rag'batlantirish;

-IIV tomonidan NNTlarga ma'lum miqdorda resurslar (maktablarda tadbir o'tkazish, transport, reklama materiallari) ajratish;

-Ijtimoiy sheriklik asosida memorandumlar imzolasish, har bir tuman va shahar darajasida IIO va NNTlar o'rtasida rasmiy hamkorlik memorandumlarini tuzish. Bu memorandumalarda tarafalarning huquq va majburiyatlari, faoliyat turlari, ko'mak shakllari belgilab qo'yilishi kerak;

-NNTlar ishtirokida monitoring va tahlil ishlarini tashkil qilish, profilaktik tadbirlar samaradorligini baholash va tahlil qilishda NNTlarning fikri va xulosalarini inobatga olish;

-Mahallalarda jamiyat nazorati mexanizmini ishga tushirish va unda NNTlar faol ishtirokini ta'minlash.

Xulosa: Ushbu maqola profilaktika inspektorlari va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, NNTlar davlat organlari bilan samarali hamkorlik orqali huquqiy ong va madaniyatni oshirish, jinoyatchilikka moyil shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, viktimologik profilaktika va jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mavjud muammolar – huquqiy asoslarning yetarli emasligi, axborot almashuvining samarali tizimi bo'lmasligi, moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlashning cheklanganligi – hamkorlik samaradorligini pasayitmoqda. Shu sababli, maqolada keltirilgan takliflar: huquqiy me'yorlarni mustahkamlash, elektron axborot almashuv tizimini joriy etish, qo'shma profilaktika tadbirlarini rejalashtirish, malakali o'quv va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqish, hamda NNTlar faoliyatini monitoring qilish – profilaktika inspektorlari va NNTlar hamkorligini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik natijasida huquqbuzarliklarning oldini olishning samaradorligi oshadi, aholi huquqiy ongi yuksaladi va davlat-jamiyat ishonchi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, 2017. – 104 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. O'zbekiston Respublikasining "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi Qonuni, 2019 yil 2 aprel, O'RQ-532-son. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-4494709>
4. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 2019 yil 2 sentyabr, O'RQ-561-son. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/4494709>
5. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida, 2017 yil 11 sentyabr, O'RQ-445-son. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-3336169>
6. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni, 2016 yil 16 sentyabr, O'RQ-407-son. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-3027843>
7. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni, 2014 yil 14 may, O'RQ-371-son. – Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-2387357>.
8. Ahmad o'g'li C. M. NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHNING MILLIY MEKANIZMLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 57. – №. 2. – С. 482-489.
9. Ahmad o'g'li C. M. et al. ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ТУШУНЧАСИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА ТУРЛАРИ //Modern education and development. – 2025. – Т. 26. – №. 1. – С. 171-176.
10. Чориев М. А. ШАХСИЙ ҲУҚУҚ ВА ЭРКИНЛИКЛАРНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ТАЖРИБАСИНИНГ ТАРИХИЙ ШАКЛЛАНИШИ //ХАБАРШЫСЫ. – 2022. – Т. 3. – С. 156.
11. Ahmad o'g'li C. M. ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО МЕХАНИЗМЛАР Чориев Махмуджон Аҳмад ўғли.
12. Ahmad o'g'li C. M. ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО МЕХАНИЗМЛАР Чориев Махмуджон Аҳмад ўғли.
13. ЧОРИЕВ М. ШАХСИЙ ҲУҚУҚ ВА ЭРКИНЛИКЛАРНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР ТАСНИФИ //UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/9] ISSN 2181-7324.

- 14.Фозилов У. Э. ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИ БАРПО ЭТИШДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ УМУМЖАҲОН ДЕКЛАРАЦИЯСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАЗМУНИ-МОҲИЯТИ //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 9. – С. 4-8.
- 15.Фозилов У. Э. Фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг ҳуқуқий муаммолари: Юрид. фан. ном. дисс. автореф. – 2009.
- 16.Ниматов Ш. Н. и др. ЁШЛАР ВА ХОТИН-ҚИЗЛАР ЖИНОЯТЧИЛИГИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШДА НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАР ВА ИЖТИМОИЙ ПРОФИЛАКТИКА МЕХАНИЗМЛАРИ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2025. – Т. 79. – №. 2. – С. 143-157.
- 17.Ниматов Ш. Н. и др. ИҚТИСОДИЙ ЖИНОЯТЛАРНИ ПРОФИЛАКТИКА ҚИЛИШ: ЎЗБЕКИСТОНДАГИ АМАЛДАГИ ҲОЛАТ ВА ҲУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМЛАР //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 55. – №. 1. – С. 229-243.
- 18.Ниматов Ш. Н. и др. АЁЛЛАР ЎРТАСИДА РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЧИЛИК: САБАБЛАР, ТАҲЛИЛ ВА ПРОФИЛАКТИК ЁНДАШУВЛАР //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 55. – №. 1. – С. 365-379.
- 19.Ниматов Ш. Н. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳозирги кундаги долзарб масала сифатида //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 1. – С. 136-140.
- 20.Ниматов Ш. Н. и др. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИ ОММАВИЙ МАДАНИЯТ ТАЪСИРИДАН ҲИМОЯЛАШГА ОИД ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 55. – №. 1. – С. 380-392.
- 21.Ниматов Ш. Н. и др. ОБОД ВА ХАВФСИЗ МАҲАЛЛА ҲАМДА Е-ЎТМОЎУ ПРОФИЛАКТИКА ТИЗИМИ: АХЛОҚҚА ҚАРШИ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИ //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 57. – №. 2. – С. 450-465.
- 22.Ниматов Ш. Н. и др. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ‘МАҲАЛЛА ЕТТИЛИГИ’БИЛАН ҲАМКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА АМАЛИЙ АСОСЛАРИ //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 57. – №. 2. – С. 436-449.
- 23.Ниматов Ш. Н. и др. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА МАҲАЛЛА ФУҚАРОЛАР ЙИҒИНИ РАИСИ БИЛАН ҲАМКОРЛИГИ: ҲУҚУҚИЙ

- АСОСЛАР, АМАЛИЙ МЕХАНИЗМЛАР ВА САМАРАДОРЛИК //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 57. – №. 2. – С. 390-401.
24. Ниматов Ш. Н. и др. НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ВА ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИ ҲАМКОРЛИГИ: ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАР ВА АМАЛИЙ МЕХАНИЗМЛАР //JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. – 2025. – Т. 87. – №. 1. – С. 114-122.
25. Маматов Ш. И. Ў. ТОВАРЛАРНИНГ СИФАТИ ВА ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ШАРТНОМАЛАРИНГ ЎРНИ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 3. – С. 143-146.
26. БЎЙИЧА Ҳ. П. " ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ БЎЙИЧА НОРМАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //ОБРАЗОВАНИЕ. – 2025. – Т. 79. – №. 2. – С. 143-157.